

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 4 (6)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович тарих
фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна тарих
фанлари доктори, доцент *Ўзбекистон*
Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Нарбеков Абдикамил Вафасевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Жамоат ҳафсизлиги университети
Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Али Назарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Галиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> : E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> : E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Абдуллаева Нигора Санжаровна “МУЗЕЙ ВОСТОКА” МУЗЕЙИДА ЎРТА ОСИЁ КОЛЛЕКЦИЯЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	5
2. Абдуллаева Нигора Санжаровна РОССИЯНИНГ “МУСИҚА МУЗЕЙИ”ДА САҚЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОН МАДАНИЙ МЕРОСИ НАЪМУНАЛАРИ	17
3. Аннаев Жалолiddин Тухташевич МАРҒИЁНА БУДДАВИЙЛИК ЁДГОРЛИКЛАРИ ВА САНЪАТ НАМУНАЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	30
4. Азизов Ильдар Рафаэлевич УЧАСТИЕ И КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЗБЕКИСТАНА В МЕЖПАРЛАМЕНТСКОЙ АССАМБЛЕЕ СНГ	46
5. Балтабаева Манзура Мирзажановна ГЕНДЕРНАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА: ВОПРОСЫ ЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ГОСУДАРСТВЕННОМ И ОБЩЕСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ	53
6. Бахронов Шерзод Таштурсунович ИЗ ИСТОРИИ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ С РОССИЕЙ В КОНЦЕ XIX-НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ	65
7. Ишанхуджаева Замира Раимовна ИЗУЧЕНИЕ И СОХРАНЕНИЕ ПАМЯТИ О ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЕКТА И ЦИФРОВОЙ ИСТОРИИ	74
8. Kamolova Muhlis Farhod qizi TURKISTON GENERAL-GUBERNATORI A.V. SAMSONOVNING O‘LKADAGI TA’LIM JARAYONI VA TARIXIY-MADANIY OBYEKTLAGA NISBATAN OLIV BORGAN SIYOSATI (1909-1914 YILLAR)	81
9. Махмудова Нигора Баротовна СОСТОЯНИЕ СЕЛЬСКОГО УПРАВЛЕНИЯ НА НАЧАЛО XX ВЕКА В ТУРКЕСТАНСКОМ ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВЕ (НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА)	91
10. Мусаев Нуриддин Умирзакович МИРЗАЧЎЛНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА УНИ ЎЗЛАШТИРИЛИШИ ТАРИХИДАН	103
11. Очилдиев Файзулла Бобокулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА БОШЛАНҒИЧ ВА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ	115
12. Raxmanova Mahbuba Shavkat qizi КАТТА О‘РТА ОСИЁ ИҚТИСОДИЙ РАЙОННИНГ ГЕОГРАФИК ВА ИҚТИСОДИЙ ТАВСИФИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	124

Raxmanova M. Sh.

tayanch doktorant (PhD)

O'zbekiston Milliy universiteti

raxmanovamahbuba@gmail.com

KATTA O'RTA OSIYO IQTISODIY RAYONINING GEOGRAFIK VA IQTISODIY TAVSIFI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sobiq Sovet hukumati tomonidan o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar natijasida SSSR ning barcha hududlaridagi kabi O'rta Osiyo hududida ham tashkil qilingan iqtisodiy rayonlar xususan, Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni haqida so'z yuritilgan. Shu bilan birga bu iqtisodiy rayonning geografik shart-sharoitlari, tabiiy boyliklari, sanoat ishlab chiqarish holati umuman olganda hududning SSSR xalq xo'jaligidagi ahamiyati mavjud tadqiqotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni, SSSR, O'zbekiston SSR, ishlab chiqarish, tashkil qilish, mehnat resursi, geografik, iqtisodiy, sanoat, xalq xo'jaligi.

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib sobiq Sovet Ittifoqi hukumati mamlakatning barcha potentsial quvvatidan, xususan geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, geoekologik holati, iqtisodiy ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy rivojlanish holatidan tez sur'atlarda samarali foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Shu sababdan mamlakatning barcha hududlarini iqtisodiy xususiyatlariga ko'ra chegaralash ya'ni mamlakatni iqtisodiy rayonlarga ajratish usulidan foydalangan.

Iqtisodiy rayon – konstitutsiyaviy belgilangan hududiy birlikka ega bo'lmagan, bir-biri bilan turli ixtisoslashuvlar, doimiy ishlab chiqariluvchi mahsulotlar ayriboshi va boshqa munosabatlar bilan bog'langan mamlakat xalq xo'jaligining hududiy qismi hisoblanadi.

Shu o'rinda iqtisodiy rayonlashtirishning ilmiy asoslarini rus olimi N. N. Baranskiy tadqiq qilganligini aytib o'tish lozim. N. N. Baranskiy iqtisodiy-geografiya sohasi bilan shug'ullanuvchi olim sifatida birinchi bo'lib hududning resurs bazalari ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Mehnat resurslari va ishlab chiqarish munosabatlarini batafsil o'rganishi natijasida iqtisodiy kategoriyalarning o'zaro bog'liqligini va ularning hududiy tafovutlar shakllanishiga ta'sirlarini asoslab bergan[8].

Ushbu soha bilan shug'ullangan SSSR Fanlar akademiyasi akademigi N.N. Nekrasov esa mamlakatni iqtisodiy rayonlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotlarida ishlab chiqarish kuchlarini maqsadga muvofiq joylashtirish mintaqaviy iqtisodiyotning asosi sifatida qaralgan[2]. N.N. Nekrasovning tadqiqotlari SSSR iqtisodiyotida "mintaqaviy iqtisodiyot" yo'nalishining rivojlanishida muhim asos vazifasini bajargan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Sovet hukumatining dastlabki yillaridan boshlangan iqtisodiy rayonlashtirish siyosati Ikkinchi jahon urushidan keyin yanada jadallashtirilgan. Mamlakat iqtisodiyotidagi islohotlar natijasida SSSR da iqtisodiy rayonlar tashkil qilina boshlanadi va bu mehnatning mintaqaviy bo'linishiga olib keladi. Buning natijasida ishlab chiqarish kuchlari hududning iqtisodiy imkoniyatlariga mos ravishda joylashtirish choralari ko'riladi[10]. Mehnat resurslarini hududning xalq xo'jaligi xususiyatlarini inobatga olgan holda joylashtirish samaradorlikni oshirishga xizmat qilar edi.

Shu tariqa SSSR da bir-biriga iqtisodiy ta'sir qilish orqali bog'langan 17 ta iqtisodiy rayon tashkil qilinadi. Bevosita ularning 16 tasining tarkibida xalq xo'jaliklarining ishini koordinatsiyalash va planlashtirish Kengashlari ham tuzilgan[6]. Bu iqtisodiy rayonlar bitta respublika tarkibida yoki bir nechta respublikalarning iqtisodiy va xo'jalik jihatidan birlashtirilishi natijasida tashkil qilingan. Bir necha respublikalardan tashkil etilgan iqtisodiy rayonlarga "katta" so'zi qo'shib ishlatilgan. Shunday iqtisodiy rayonlardan biri, SSSR iqtisodiyotini harakatlantiruvchi potensial quvvatga ega bo'lgan Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonidir.

Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibiga geografik joylashuv jihatidan O'rta Osiyo hududidagi Qozog'iston SSR dan tashqari 4 ta ittifoqdosh respublikasi – O'zbekiston SSR, Qirg'iziston SSR, Tojikiston SSR va Turkmaniston SSR hududlari kirgan. Ushbu Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining hududi 1 238 000 km. kv. ni tashkil qilgan. 1962-yil 1-yanvar statistika ma'lumotlarida keltirilishicha aholisi 15 175 000 kishini tashkil qilgan[1].

Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni geografik jihatdan shimolda Qozog'iston SSR bilan, janubda Eron va Afg'oniston bilan, sharqda Xitoy hududlarigacha va g'arbda esa Kaspiy dengizni bilan chegaralangan. Ushbu hudud SSSR davlatining janubiy qismida joylashgan bo'lib, issiq va quyoshli kunlarning ko'pligi, energetik resurslarga, xilma xil tabiiy xom ashyolarga boyligi jihatidan ham butun mamlakatda alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Yevrosiyo materigining o'rtasida, okeanlardan uzoqda joylashgan Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni hududini tabiatining xilma xilligi va landshafti jihatidan bir

biridan farqlanuvchi ikki qismga – tekislik va tog‘li qismlarga ajratishimiz mumkin. Tekislik qismida SSSR dagi eng katta cho‘llar Qizilqum, Qoraqum va Ustyurt joylashgan. Tog‘li hududlar esa Turkman-Xuroson (Kopet-dog‘), Pomir-Oloy, Tyan Shan tog‘ tizmalaridan iborat bo‘lgan. Rayonning shunday tog‘li hududlarida 10 mingga yaqin daryo va yirik soylar mavjud bo‘lgan[5]. Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibida joylashgan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Tajan, Murg‘ob va boshqa daryolar rayonning tekislik qismini suv bilan ta‘minlab turgan. Shu bilan birga ushbu suv havzalarida xalq xo‘jaligining barcha tarmog‘i uchun zarur bo‘lgan juda katta gidroenergetik inshootlar ham barpo etilgan.

Tadqiqotchi A. Mamatqulovning fikriga ko‘ra, O‘rta Osiyo hududidagi Qozog‘iston SSR ning alohida iqtisodiy rayon sifatida tashkil qilinishiga sabab Qozog‘iston SSR mehnat taqsimotida ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish xususiyatiga egaligi va bundan tashqari Qozog‘iston SSR ning sanoatida asosiy ishlab chiqarish sohasi qora va rangli metallurgiya bo‘lsa, bundan farqli o‘laroq Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibiga kiritilgan respublikalarda qishloq xo‘jaligi mashinasozligi yaxshi rivojlangan. Qozog‘iston SSR energetikasining asosini ko‘mir qazib olish tashkil etgan bo‘lsa, O‘rta Osiyoning boshqa respublikalari gidroenergetika va gaz qazib olishga ixtisoslashgan. Qozog‘iston SSR qishloq xo‘jaligining asosini go‘sht va bug‘doy yetishtirish tashkil etgan bo‘lsa, boshqa O‘rta Osiyo respublikalari – paxta, ipak, sabzavotlar, uzum, qorako‘l yetishtirishga ixtisoslashgan[4]. Mana shu farqli jihatlarni inobatga olgan holda Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibi shakillantirilgan.

Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonida aholining o‘sish sur‘atlari ham yuqori bo‘lib, SSSR ning boshqa iqtisodiy rayonlari orasida birinchi o‘rinda turgan. Bu esa hududning sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarini mehnat resurslari bilan ta‘minlanishiga sabab bo‘lgan. U. Nuritdinovning ta’kidlashicha, Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonining eng muhim iqtisodiy-geografik xususiyatlaridan biri – mehnat resurslari bilan yaxshi ta‘minlanganligi va tabiiy sharoiti bilan birga resurslardan sanoat va qishloq xo‘jaligida intensiv foydalanish imkoniyatlarining kattaligida bo‘lgan[5]. Ushbu tabiiy geografik joylashuvi va iqtisodiy xususiyatlari Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni SSSR xalq xo‘jaligi uchun kopmleks holda xizmat qilgan.

Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonining yetakchi sohalaridan biri paxta yetishtirish bo‘lib 1960-yillarda butun SSSR da yetishtiriladigan paxtaning 90 foizini yetkazib bergan. Paxta yetkazib berish bo‘yicha O‘zbekiston SSR birinchi, Turkmaniston SSR ikkinchi va Tojikiston SSR uchinchi o‘rinda turgan[9]. Bunday natijalar ko‘rsatilishiga O‘rta Osiyo xususan O‘zbekiston SSR ning suv hazalaridan maksimal darajada foydalanilganligi sabab bo‘lgan.

O'rta Osiyoda xalq xo'jaligi suniy sug'orishga asoslanganligi va bu yerda yetishtiriladigan paxta SSSR da yetishtiriladigan paxtaning asosini tashkil qilganligi uchun hududdagi mavjud sug'orish tizimlarini qayta rekonstruksiya qilingan va bundan tashqari O'zbekiston SSR da Katta Farg'ona va Toshkent kanallari, Janubiy Tojikiston hududida Katta Vaxsh va Hisor, Qirg'iziston SSR da Katta Chuy va Talas hamda Turkmaniston SSR hududida Qoraqum va boshqa kanallar qurilgan[1].

Yuqorida ta'kidlanganidek, Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining sanoati qishloq xo'jaligi mashinasozligiga ixsoslashgan bo'lib, sanoatning 90 dan ortiq tarmoqlariga qarashli bo'lgan korxonalarda traktor, ekskavator, kompressor, kabel buyumlari, neft mahsulotlari, ko'mir, qo'rg'oshin, rux va misning saralangan rudasini, volfram, yod, brom, gazlama, poyafzal va boshqa xil turli tuman mahsulotlarni ishlab chiqarilgan[6]. Paxtachilik va paxta tozlash sanoatini rivojlantirish uchun ishlab chiqarilgan mashina va uskunalarning asosiy qismi ushbu iqtisodiy rayonda ishlab chiqarilgan shu bilan birga SSSR ning boshqa hududlariga ham olib ketilgan.

Tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni SSSR da birinchi o'rinda turgan. Umuman olganda SSSR hududida gaz zaxiralari notekis taqsimlangan bo'lib, ushbu gaz zaxiralarining 1/4 qismi SSSR ning Yevropa qismida, 3/4 qismi esa Osiyo qismida joylashgan[7]. Osiyo qismida joylashgan tabiiy gaz zaxiralar O'zbekiston SSR va Turkmaniston SSR hududlariga to'g'ri kelgan.

O'rta Osiyo tabiiy gazidan unumli foydalanish, mamlakatning boshqa hududlariga yetkazish maqsadida bu yerdan O'rta Osiyo – Ural, O'rta Osiyo – Markaz gaz quvurlari va bundan tashqari O'rta Osiyo respublikalarining boshqa hududlariga ham magistral gaz quvurlari o'tkazilgan[5].

Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni oziq-ovqat sanoatida paxta yog'i, meva va sabzavotlar konservasi, uzum vinosi, quritilgan meva va boshqalar ishlab chiqarishda yetakchilik qilgan. Bundan tashqari O'zbekiston SSR hududida SSSR dagi yirik baliq konserva zavodi faoliyat ko'rsatgan[3] bo'lib, hatto SSSR ning markaziy hududlariga ham baliq va baliq konservasi mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib bergan.

Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonida SSSR da ishlab chiqariladigan o'simlik yog'ining 21 foizi, mineral o'g'itlarning 8 foizi, shoyi gazlamaning 6 foizi va ip-gazlamaning 5 foizi ishlab chiqarilgan. Shu bilan birga osh tuzi zaxiralarining 70 foizi Tojikiston SSR hududiga joylashgan[4].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XX asrning ikkinchi yarmida SSSR iqtisodiyotini rivojlantirish uchun hududini iqtisodiy rayonlarga bo'lib boshqarish asosida olib borilgan. O'rta Osiyo hududida tashkil qilingan Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni iqlimi, yer-suv resurslari, qazilma boyliklarining mavjudligi hamda sanoati va qishloq xo'jaligining mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi SSSR iqtisodiyoti uchun katta foyda keltirgan.

SSSR da amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning barchasi hududdagi barcha resurslardan xususan xalq xo'jaligida paxta yetishtirish, ipak, sabzavotlar, uzum, qorako'l, sanoatda paxtachilik uchun mashinalar, paxta tozalash uskunalari, to'quv dastgohlar ishlab chiqarish, bundan tashqari gaz qazib olish, gidrotexnik inshootlardan samarali va maksimal darajada foydalanish SSSR ning iqtisodiy manfaatlarini qondirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аминов А.М. К характеристике Среднеазиатского экономического района. / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1963. 2 сон. – 5-6 б.
2. Зиёдуллаев С. Ўзбекистон экономикасининг регионал проблемалари. – Тошкент: Фан, 1987. – 7 б.
3. Избасханов Е. Экономическое районирование Каракалпакской АССР. // Вестник. Каракалпакский филиал академии наук Узбекской ССР. 1964. – С. 16.
4. Маматқулов А. Ўзбекистонда XX асрнинг 50-80 йилларида совет ҳокимиятининг иқтисодиф районлаштириш сиёсати (Самарқанд-Қарши иқтисодий районлари мтсолида).Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илм.дар.... дисс. – Тошкент: 2021. – 14-15, 53 б.
5. Нуритдинов Ў., Голован К.А. СССР иқтисодий географияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 228-229, 231, 232 б.
6. Рудин А. Ўрта Осиё йирик иқтисодий райони // Қизил Ўзбекистон. 1962 йил 13 апрель.
7. Среднеазиатский экономический район. – Москва: Наука, 1972. – С. 55.
8. Сысенко И. Экономическое районирование. 2007.
<https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskoe-rayonirovanie/viewe>
9. Юнусова Х. Катта Ўрта Осиё иқтисодий районида Ўзбекистоннинг тутган ўрни. / “Мирзо Улуғбек – буюк мутафаккир олим ва давлат арбоби” номли халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: 2024, – 660 б.

10. Юсупова Г. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ҳаётида Фарғона иқтисодий районининг ўрни (XX асрнинг 50-80 йиллари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илм.дар.... дисс. – Тошкент: 2022. – 28 б.

Рахманова М.Ш.

базовый докторант (PhD)

Национальный университет Узбекистана

rahmanovamahbuba@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются экономические районы, созданные в результате экономических реформ, проведенных бывшим Советским правительством на территории Средней Азии, как и на всей территории СССР. В частности, речь идет о Большом Среднеазиатском экономическом районе. Вместе с тем, на основе существующих исследований проанализированы географические условия, природные богатства, состояние промышленного производства данного экономического района, а также в целом его значение в народном хозяйстве СССР.

Ключевые слова: Большой Среднеазиатский экономический район, СССР, Узбекская ССР, производство, организация, трудовые ресурсы, географический, экономический, промышленный, народное хозяйство.

Rahmanova M.Sh.

doctoral student (PhD)

National University of Uzbekistan

rahmanovamahbuba@gmail.com

ABSTRACT

The article discusses the economic regions established in Central Asia, similar to those across all territories of the USSR, as a result of economic reforms implemented by the former Soviet government. Specifically, it examines the Greater Central Asia Economic Region, highlighting its geographical conditions, natural resources, industrial production, and, in general, the significance of the region in the national economy of the USSR based on existing researches.

Key words: Greater Central Asian economic region, USSR, Uzbekistan SSR, production, organization, labor resource, geographical, economic, industry, national economy.